



## MUSIQA DARSİ O'Z TABIATIGA KO'RA HAM SAN'AT, HAM TARBIYA DARSIDIR

**Kamar Seitjanova**

O'qituvchi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7571972>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 25<sup>th</sup> January 2023

Online: 26<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Musiqqa, madaniyat, texnika, san'at, metod, individual ijod, ma'naviyat, musiqqa mashqlari, eshitish.*

### ABSTRACT

*Zamonaviy musiqqa madaniyati saboqlarini badiiy-pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o'qituvchi o'zining individual ijodi, tajribasi asosida yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy-pedagogik g'oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, uslubiy metod va texnologiyalari ham o'quvchilarning musiqqaga, o'quv materiallariga qiziqishini oshiradi, ularda musiqqa san'ati va madaniyatining ma'naviy mazmunini singdiradi. Zamonaviy musiqiy ijodiy faoliyatni tushunish - bularning barchasi o'qituvchining ijodiy yondashuvi mahsulidir.*

Umumta'lim maktablari "musiqqa madaniyati" darslarida musiqqa ta'limi va tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni eng awalo musiqqa san'atiga, o'zi o'tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o'rganilayotgan kuy - qo'shiqlarga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turmog'i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish, musiqqa tinglashga bo'lgan qiziqish va moyillik, asta - sekin yoshlarning musiqqa san'atiga bo'lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Shunga muvofiq qo'llaniladigan metodlar ham ko'proq o'yin xarakterda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Sho'x, o'yinbop, raqs ishtirokida turli musobaqa tarzida uyushtiriladigan va tematikasi bolalar dunyosiga mos ertak qahramonlari, hayvonlar, parrandalar, o'simliklar, tabiat manzaralari, qushlar obrazlari bilan bog'liq asarlar o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg'ota oladi, estetik hissiyotlarini, musiqiy qobiliyatlarini o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlaridan, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish darslarni yanada sermazmun va faol bo'lishini ta'minlaydi, yoshlarda xalq musiqqa merosiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi. [1.B.90-91]

Musiqqa darsi o'z tabiatiga ko'ra ham san'at, ham tarbiya darsidir. Uni rang -barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai. "Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab"-deb ta'kidlaydi



taniqli kompozitor - pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning hissiy - emotsional ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his - tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Asarni ijro va idrok etishda his - tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, ta'sirlanish shuncha ongli va samarali bo'ladi. Bu holatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero, zerikarli va bir xillik sinfda jonli hissiyot holatini vujudga keltira olmaydi. O'quvchilarni darsga qiziqitirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan repertuar va uslublarga (an'anaviy yoki interfaol metodlar) bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni ularning yoshi, qiziqishi, bilim va malakalari, ko'nikmalari darajasiga bog'liq. [2.B.64]

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyahasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar va o'qituvchining hamkorligi o'zaro muloqot, bir - biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. O'quvchilarning faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Maqolaning asosiy bo'limi. Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar juda ko'p. Bu texnologiyalar o'quvchilarning yosh xususiyatiga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual mashg'ulotlarga mo'ljallangan bo'ladi. [3.B.162-163]

Ko'pgina maktablarda musiqa darslari musiqa mashg'ulotlari uchun moslashmagan sinf yoki zallarida o'tkaziladi. Ana shunday hollarda komp'yuter texnologiyalari, aynan, mul'timedia proektorlaridan foydalanish katta yordam beradi.

Mul'timedia vositalarini musiqa darsning barcha faoliyatlari: jamoa bo'lib quylash, musiqa tinglash, bolalar cholg'ularida ijro qilishlarda qo'llash mumkin.

SHaxsiy komp'yuterlar allaqachon inson kundalik hayotiga kirib, oddiy maishiy asbobga aylanib qoldi. Internet tarmoqlarining keng tarqalishi ta'lim jarayonida uni keng qo'llash imkonini yaratdi. [2.B.98] . Zamonaviy musiqa o'qituvchisi Internet tarmoqlari sharofati bilan o'ziga kerak bo'lgan u yoki bu materialni topishi va uni o'zining darsida o'quvchilar diqqatiga havola qilishi mumkin.

Masalan: o'qituvchi o'quvchilarga kompozitorlar biografiyalari va ko'plab har xil uslub - yo'nalishdagi musiqalar, matnlar va ularning yaratilish tarixi va har xil qo'shiqlarning audio yozuvlarini Internet saytlardan topib kelishni vazifa qilib berish mumkin. [3]

Agarda o'quvchilarga u yoki bu qo'shiq yoqib qolgan bo'lsa, ular o'zlariga ma'lum saytlarga kirishi va bu qo'shiqning boshqa variantlarini ko'chirib olishlari hamda uyda uning turli variantlarini bir - biriga qiyoslash va tahlil qilib kelishni vazifa qilib berish mumkin.



Internet orqali olingan har xil musiqiy ma'lumotlarni olish va qayta ishlashni o'rganish - o'quvchilarning musiqani bilish - o'rganish faoliyatini rivojlantirish va dunyo musiqa madaniyati bilan tanishishning zamonaviy shakllaridan biridir.

Ana shunday vazifalarni bajarish uchun quyidagi saytlarni tavsiya qilish mumkin: <http://www.sovmusic.ru/>; [www.classic-music.ru](http://www.classic-music.ru/); [www.tchaikov.ru](http://www.tchaikov.ru/); [www.vkontakte.ru](http://www.vkontakte.ru/) va boshqalar. [4.B.154]

Bunday vazifalarning muhimligini shundaki, barcha ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internetdan kelayotgan ma'lumotlar cheksiz bo'lib, o'qituvchining asosiy vazifasi kelayotgan ma'lumotlar oqimini kerakli tomonga yo'naltirish, o'quvchilar diqqatini kerakli saytlarga qaratish, ushbu ma'lumotlarni olish va qayta ishlashga o'rgatishdir.

Uyga vazifalar berishining yana bir turi, o'quvchilardan ma'lum bir mavzular bo'yicha tayyorlanib kelish va o'z javoblarini prezentatsiyalar yordamida mustahkamlashni so'rashdir.

Prezentatsiyalardan foydalanib, javob beradigan o'quvchiga shunday vazifalarni bajargani uchun ikkita baho: bir baho - prezentatsiya, ikkinchi baho esa javob uchun qo'yish mumkin.

Vazifalarning bunday turini bajarish, o'quvchilar uchun juda foydalidir, chunki ular prezentatsiyalar tayyorlash uchun ma'lum bir tadqiqotchilik ishlarini olib borishi va katta informatsion materialdan foydalanishi zarur. Buning natijasida o'quvchi o'zining ijodiy salohiyatini namoyon qiladi. Bunday ishlar uning shaxsiy ijod mahsuliga aylanadi.

Prezentatsiyalar namoyishi jarayonida o'quvchilar ularga kelgusi hayotida zarur bo'ladigan ommaviy chiqish tajribasini egallaydilar. Chunki komp'yuter bilan ishlash malakalari zamonaviy yoshlar madaniyatining muhim elementlaridan biridir. Musiqa ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida musiqa ta'limi sohasida komp'yuter texnologiyalarini qo'llashga turlicha yondashuv turlari tahlil qilinsa, ularni qo'llashning bir nechta yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin:

- musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilish (tinglash faoliyati);
  - vokal - xor ishlari (minusovkalardan foydalanish, qo'shiqlarni o'rganishda tasviriylik);
  - musiqa tarixi va nazariyasi materiallarini o'rganish (musiqa savodi faoliyati);
  - sinfdan tashqari ish;
  - internetdan foydalangan holda har xil musiqiy ma'lumotlarni olish.
- Informatsion texnologiyalarni musiqa darslarida qo'llash:
- shaxs kamoloti rivojiga,
  - o'quvchilarning musiqa darslariga qiziqishlari oshishga;
  - ta'lim jarayoniga o'quvchilarning qiziqishlari ortishga;
  - faollik va mustaqillikning oshishiga;
  - o'quvchilarda musiqa san'atiga nisbatan estetik, emotsional - munosabatining shakllantirishga;
  - ularida nazariy tafakkur asoslari shakllanishiga yordam beradi. [5.B.46]

YUqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, zamonaviy maktab davr talabidan orqada qolmasligi kerak, demak, o'qituvchi o'z faoliyatida komp'yuter imkoniyatlaridan keng foydalanishi zarur.



Musiqa darslarida informatsion texnologiyalarni qo'llashda shuni unutmaslik kerakki, musiqa darsi san'at darsidir.

Informatsion texnologiyalarni qo'llagan holda o'quvchilar qobiliyatlarini namoyon qilishga yordam beruvchi yutuqlardan foydalanishi zarur. Musiqa darslarida informatsion texnologiyalarni qo'llashda sog'liqni asrovchi, texnologiyalardan foydalanishni o'ylab qo'yish zarur, chunki video informatsiyalardan foydalanish ko'rish a'zolariga katta yuk soladi. [6.]

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etishga bo'lgan qiziqish kundan - kunga kuchayib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni puxta bilim va malakalarni egallashlarini yengillashtiradi, qulaylik tug'diradi. Shu o'rinda biz o'zimizning amaliy tajribamizda qo'llagan ayrim texnologiyalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Raqs + tabassum. Bu texnologiyalardan ko'proq boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf darsliklaridan o'rin olgan "Qari navo", "Usmoniya", "Andijon polkasi", "Dilxiroj" raqs kuylarida qo'llash yaxshi nafija beradi. Bunda o'yin - raqsga jalb etilgan o'quvchilar hohlagan holatda turadilar. O'qituvchi yoqimli musiqa ostida barcha o'quvchilarni raqsga taklif etadi. [3.B.290]

O'quvchilar erkin raqsga tushadilar. Musiqa tugagach yonida, to'g'risida to'xtagan do'stiga tabassum bilan olqishlovchi so'z aytishi kerak.

Hammaga tanqid qiluvchi yoki ko'ngilni qoldiruvchi so'z aytish qat'iy man qilinadi. O'quvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin: "Sizni raqs tushishingizdan xursand bo'ldim", "Siz chiroyli raqs tushar ekansiz", "Sizning raqs usullaringiz menga juda yoqdi" va b.[7]

Pantomimo uslubi. O'quvchilar doira shaklida o'tiradi. O'qituvchi o'quvchilarga cholg'u asboblarning rasmini tarqatadi. O'quvchilarning vazifasi ushbu cholg'u asboblarda qanday holatda kuyni ijro etilishini harakatlar bilan ko'rsatishdan iborat. Qolganlar esa kuzatib, qaysi cholg'u asbobi ko'rsatilayotganligini topishi kerak. Masalan, rasmda doira surati aks etgan bo'lsa, stulda o'tirgan holda qo'l harakati bilan ko'rsatib beradi, karnay, surnay, g'ijjak, rubob, dutor, fortepiano, cholg'u asboblari mos qo'l harakatlari bilan tasvirlanadi. 5 - 6 ta o'quvchining chiqishidan so'ng muhokama qilinadi.

Marhamat davom ettir. (takrorlash darslari uchun). Sinf ikki guruhga bo'linadi. Oldingi darslarda o'rgatilgan qo'shiqlardan birini 1 - guruh boshlab beradi, birinchi kuplet kuylanadi, 2 - guruh davom ettiradi. Qaysi guruh to'g'ri, aniq davom ettirsa u g'olib bo'ladi va 2 - qo'shiqni tanlash huquqiga ega bo'ladi. 3 ta qo'shiqdan keyin mutloq g'olib aniqlanadi va baholanadi.

"Bilag'onlar ko'chasi" uslubi. Bu texnologiyada o'quvchilar guruhlarga bo'linadi (4-5 ta), har bir guruhga bastakorlarning portretlari ko'rsatiladi. O'quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, asralari nomlarini aytishadi, asarlaridan ayrim parchalarni kuylab berishadi. Mazkur usul o'tgan mavzularni ko'proq dalillar keltirgan holda qisqa va lo'nda ifodalab, boshqa guruh ishtirokchilarini javoblari bilan solishtiriladi. Aniq, to'g'ri javob bergan guruh g'olib hisoblanadi.[8]

Tarmoqlar (Klaster) metodi. Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biror bir mavzuni o'rganishlariga yordam berib, mavzu haqida aniq fikr, tushunchani erkin va ochiq ravishda ketma - ketlik bilan tarmoqlashga o'rgatadi. Bu biron bir



mavzuni chuqur o'rganish, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun yordam beradi. Mavzu bo'yicha tasavurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Umumiy xulosalar. Har qanday jamiyatning istiqboli uning ta'lim - tarbiya maqomiga, yangicha ta'lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma'rifiy madaniyatiga bog'liq. Zotan, ta'lim ma'rifati darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta'minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi. O'z maqomi va mundarijasi bilan u muqobill yo'q qadriyatdir. [9.]

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi, muvaffaqiyatini belgilab beruvchi vositalardandir.

### References:

1. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent, - O'zbekiston, 1999 - yil.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 - yil.
3. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o'quv - uslubiy majmuasi. - SamDU, 2011 - yil.
4. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. - O'quv - uslubiy majmua. SamDU, 2011 - yil.
5. Qo'shayev A. Estetik tarbiya asoslari. - Toshkent, O'qituvchi, 1988 - yil
6. [http://www.sovmusic.ru/;](http://www.sovmusic.ru/)
7. [www.classic-music.ru;](http://www.classic-music.ru;)
8. [www.tchaikov.ru;](http://www.tchaikov.ru;)
9. [www.vkontakte.ru](http://www.vkontakte.ru)